

## MILLIY HARAKATLI O'YINLARNING PEDAGOGIK VA TA'LIMIY AHAMIYATI VA BOLALAR KAMOLOTIGA TA'SIRI

**Azimov Nodir Nasilloevich**

*Buxoro davlat pedagogika instituti jismoniy  
tarbiya va sport kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu quyida berilgan maqolada milliy harakatli o'yinlarimizning nafaqat yosh avlodning jismoniy kamolotiga balki tarbiyaviy va ta'limiy ustunliklari yuzasidan tahlillar o'tkazish ifoda etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *harakatli 'yinlar, texnika, taktika, fiziologik, antropologiya, abjir,*

**Аннотация:** *В данной статье представлен анализ воспитательных и образовательных преимуществ национальных подвижных игр не только для физического совершенствования подрастающего поколения.*

**Ключевые слова:** *подвижные игры, техника, тактика, физиология, антропология, абджир,*

**Annotation:** *This article below represents the analysis of the educational and educational advantages of our national action games, not only on the physical maturity of the younger generation.*

**Keywords:** *action games, technique, tactics, Physiological, Anthropology, abjir,*

### KIRISH

Insoniyat madaniyatining xazinalaridan biri- bu harakatli o'yinlardir. Ularning turlari, har xilligi bepayon ulkandir. Harakatli o'yinlar odamlarning barcha moddiy va ma'naviy ijodiyotini aks ettirib kelgan va yana ham boyitib kelgan.

Tabiiyki, harakatli o'yinlarning kelib chiqishi, mazmuni va ahamiyatini o'rganib kelishda ko'pgina bilim tarmoqlari azaldan o'rganib kelmoqda. Jumladan, tarix, etnopedagogikka, antropologiya, pedagogika hamda jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati, shular qatorida boshqa fanlar ham qiziqib kelmoqda.

Harakatli o'yinlarda o'yinchini ijodiy tashabbuskorligini turli harakatlarni namoyon bo'lishi jamoaning birdamligi bilan kelishilgan holda ifodalanadi. Bolalarning o'yin faoliyatida ikkita juda muhim ob'ektiv biri birovi bilan bog'langan, mezonlar mavjud. Bir tomondan bolalar amaliy faoliyatga kirishib jismoniy rivojlanishida, mustaqil harakat qilishga odatlanadilar. Ikkinchi tomondan – shu faoliyat ma'naviy va nafosat ozuqa olishib qanoat hosil qilishadi, tevarak atrofdagi muhitni o'rganishni chuqurlashtiradilar. Bu natijalarining samarasi o'laroq o'yinlar ham pedagogik ham ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bularni barchasini natijada shaxsni to'liq tarbiyalanishiga keng yordam beradi. Shunday qilib, harakatli o'yin tarbiyaning mujassamlangan bir vosita u har tomonlama jismoniy tayyorgarlikka yo'naltirilgan (jamoaga faoloyatining o'zgaruvchan sharoitida asosiy harakatlarni o'zlashtiribgina

qolmasdan, balki murakkab hatti-harakatlarni bajarish), bo'lib o'yin ishtirokchilarini organizmni funksiyalarini fe'l-atvorini ham takomillashtiradi.

Xalqimizda: "Sog'lom tanda - sog' aql", — degan naql bor. Bu insonning jismi salomat bo'lsa, uning ilm olish, ma'naviyatini yuksaltirish imkoniyatlari ham shunchalik yaxshi bo'ladi, degani. Necha ming yillardan beri o'ynalib kelinayotgan milliy harakatli o'yinlarimiz timsolida bu masalaga ota-bobolarimiz naqadar e'tibor bilan qaraganlariga amin bo'lamiz. O'zbek xalq milliy o'yinlari nihoyatda qadimiy. Ularni haqli ravishda ajdodlarimiz tafakkurining mevasi deyishimiz mumkin. Zero, ularda xalqimizga xos tantilik, mardlik, g'ayrat va shijoatlilik fazilatlarini o'z ifodasini topgan. Tarix manbalaridan ma'lumki, bundan uch-to'rt ming yillar muqaddam hozirgi Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududlarida yashagan ota-bobolarimiz harbiy-sport o'yinlari (yugurish, kamondan o'q otish, kurash) bilan jiddiy shug'ullanganlar. Ularning botirliklari, ham piyoda, ham otda yurib ko'rsatgan qahramonliklari yetti iqlimga yoyilgan. Bu an'ana ajdoddan avlodga o'tib, keyinchalik temuriylar, boburiylar davrlarida ham davom etgan. Xususan, sohibqiron bobomiz Amir Temur bolaligidan chuqur bilim egallash bilan birga, jismoniy mashqlar bilan jiddiy shug'ullanib, o'z zamonasining eng kuchli va barkamol kishisi bo'lib yetishdi. Zahiriddin Muhammad Boburning guvohlik berishicha, Sohibqiron avlodlaridan Shoxruh Mirzo, Husayn Boyqaro, Umarshayx Mirzolar ham nihoyatda epchil, jismonan baquvvat, shijoatli podshoxlar bo'lishgan. Ulardagi g'ayrat, jasoratni ko'rgan askarlari xuddi shunday bo'lishga intilishgan. Xullas ajdodlarimiz yaratib ketgan bu tarixiy xazinalar hozirda biz yoshlar uchun kelajagimiz yaratilishiga tamal toshi bo'lib xizmat qilyapti desak adashmagan bo'lamiz.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik o'yinlari muhim o'rin tutgan. Ba'zi manbalarda ular ovdan oldin o'tkazilishi yozilgan bo'lsa, boshqalarida ovdan so'nggi o'yinlar o'yinlar xaqida fikrlar bayon etilgan. Agar bu ma'lumotlarni chuqurroq taxlil etadigan bo'lsak, unda ovchilik o'yinlari ovdan oldin Ham, undan so'ng Ham o'tkazilgan, deyish mumkin. Ovdan oldingi o'yinlar – avvalda mashq (ovga tayyorgarlikni tekshirish, ovga ruxiy va jismoniy tayyorgarlik) vazifasini o'tagan Hamda jiddiy o'ziga xos kichik ibtidoiy odamlar o'ljani osongina qo'lga tushirish, unga yaqinlashishni o'rganishgan, buning uchun niqob kiyib, xayvon qiyofasiga tushishni, uning yurish-turishlari va tovush chiqarishlarini mashq qilishgan. Aynan ana shunday o'yinlar jarayonida yoshlarni Ham ov qilishga o'rgatishgan.

O'rta Osiyo territoriyasida ibtidoiy odamlar xayotida ham ovchilik o'yinlari bo'lgan degan taxminiy isbotni biz paleolit davri Boysun tog'idagi Teshiktosh g'oridan bundan yuz ming burungi pespertol (o'rta paleolit) odam suyagini topilishi, Samarqandagi Omonko'ton qishlog'idagi gordan topilgan tosh quollar. Surxandaryoning Zarko't kamarida olvon rangdagi suratlar. Xo'jakent qishlog'idagi toshlarga chizilgan kiyik va xo'kiz tasviri va boshqa ko'pgina arxeologik topilmalar va ulardagi tasviriy san'atga oid elementlar, bu raqs o'yinlarining, shu jumladan bolalar folklor o'yinlarining eng sodda shaxobchalarga ega ekanligidan dalolat beribgina

qolmay, balki uning tug'ilishi bosqichlarini aniqlashga Ham yordam beradi. Mazkur suratlarda ibtidoiy kishilarning qadimgi ovchiligi, Hayvonat va tabiiy borliq bilan bog'liq rituallar aks etib, ov vaqtida janivorlar terisidan niqob qilib yurishlari, bir tomondan ov jarayonida yovvoyi Hayvonlarni xurkitib yubormaslikni ko'zlasa, ikkinchi jixatdan, ularning tushuncha va e'tiqodlarini etnografik Hamda urf-odatlarini, qadriyatlarining Ham ifoda etadi. Farg'onaning Saymalitosh tog'i g'orlariga chizilgan rasmlar (Eramizdan oldingi II-I asrlar) Hayvon terisini yopinib, o'yinga tushayotgan ishkor marosimlaridan dalolat beradi. Hayvonlar to'dasiga yaqinlashish uchun ibtidoiy odam Hayvon yoki qushlarga aynan taqlid qilish, buning uchun esa ularning o'ziga xos xususiyatlarini, yurish-turishlarini, o'tlashlarini, bir-birlari bilan olishishlarini, xurkib qochishlarini, Hatto tovushlarini Ham o'rganishga to'g'ri kelardi. Nixoyat, yovvoyi xayvonlarni ov qilish shart-sharoiti odamning chaqqon va abjir, jasur va toliqmas bo'lishini, buning uchun doim tinimsiz shug'ullana borishini talab qilardi. Bularning xammasini o'z navbatida ibtidoiy odamda jismoniy - ritmik Harakatning fe'li yoki tabiat xodisalariga taqmod qiluvchi pantomim Harakat va o'yinlarning, qahramonlik raqslarining tug'ilishiga olib kelar edi. Tog' qoyalari va g'orlarda chizilgan suratlardagi o'yin tasviri mazmun-ma'no, va shakl-shamoyil jixatdan turlariga xarakterga ega. Ayrımlari ov va meHnat jarayonini, ba'zilar esa tabiat stixiyalariga taqlid shaklida, boshqalari jangovorlikni, afsungarlikni, imo-ishora va pantomima sa'natini eslatadi. Dastlabki paytlarda shavqinli betartib o'yinlar bora-bora musiqaviy oxang pantomim Hamda plastik Harakatlari orqali amalga oshirila boshlangan keyingi davrlarda, bunday etnografik talqindagi o'yinlar turli shakllarga ko'chib "Ayiқ o'yini", "Dev o'yini", "Maymun o'yini", so'ngra "Pishiq o'yini", "Ot o'yini", "YUmron qozıq o'yini", "Echki o'yini", "Bo'ri o'yini", "Kaltak o'yini", "Burgut o'yini", "It o'yini (irrilatar o'yini)", "Quyон o'yini", "Tulki o'yini", "Jak-jaku o'yini" kabi ko'pgina o'yinlar, pantomimalari avloddan-avlodga o'tib suyak surib kelayotgani ma'lum. Ular bevosita, yoxud bilvosita bolalar folklor o'yinlariga aloqadordir. SHu tariqa "o'yin" so'zi turkiy xalqarining o'ynamoq so'zi bilan bog'liq Holda (uy, aql, xikmat ma'nolarni beradi). Aql faqimni, Harakat va imo-ishoralar vositasida ifoda etmoqlik esa o'yinlarning dunyoga kelishida muximdir.

O'zbek an'anaviy bolalar folklor o'yinlarining mavzu qamrovi, ijro uslublari juda keng. Ijtimoiy Hayot, kishilar munosabatlarining biron bir jabxasi yo'qki, ular o'yinlar nazariga tushmagan bo'lsin. Xalqimizning deHqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, polizchilik, madaniyati deysizmi, kasb-hunar va ilim-bilim sohasi deysizmi, falsafiy, estetik, ahloqiy yohud ta'lim-tarbiya, ahloq-odob bobidagi qarashlari deysizmi-barchasi an'anaviy o'yinlarga mavzudir. Xususan, o'zbek bolalar folklor o'yinlari boshdan oyoq ma'naviy, ma'rifiy, ahloqiy tushunchalar bilan yo'g'rilgan. Xalqimizning ming-ming yillarda bosib o'tgan tarixiy yo'lida, tajriba-sinovlardan qayta-qayta o'tib, yaxlit va mukammal xolga kelib, bizgaga etib kelgan bolalar folklor o'yinlarning mazmuni yo'nalishiga qarab quyidagiga turlarga bo'lish mumkin.

1. Mavsumiy bolalar folklor o'yinlari: ilk bahor, yoz, qish mavsumlarida o'ynaladigan folklor o'yinlar.

2. Marosim bolalar folklor o'yinlari: rasm-rusumlar, odatlar, marosimlar, an'anaviy bayramlarda o'ynaladigan o'yinlar.

3. Mehnat bilan bog'liq bolalar folklor o'yinlari: "Erni tobigi keltirish, xaydash", "Ekin ekish", "Qovun-qovun", "O'rik qoqish", "Qovun sayli", "Yanchiq", "Hush-Hush", "Churey-churey", "Sigir sog'di", "Tuya qaytarish", "Ot sug'arish" va boshqalar.

4. Oilaviy-maishiy bolalar folklor o'yinlari: "Mehmon-mehmon", "Kelin tushirish", "Kelin-kuyov", "Ona bola", "Ovqat pishirish", "Uy jihozlash", "Qo'g'irchoq o'yini", "Non yopish", "Er-xotin", "Alla-alla", "Beshik bezash", "Beshikka belash" va boshqalar.

5. Jismoniy Harakatli bolalar folklor o'yinlari: "Quvlashmachoq", "Kes-kes", "Ko'rpa yopildi", "Ziyrak", "G'oz-g'oz", "Koptokni quvib et", "Olar soka", "Oq suyak", "To'p-tosh", "Sinish", "CHiqildo<sup>3</sup>", "Chopish", "Zuv-zuv", "Oq terakmi-ko'k terak", "Eshak mindi", "Lanka", "Ot o'yini", "Qiz quvdi" va boshqalar.

6. Mantiqiy bolalar folklor o'yinlari: tez aytishlar, topishmoqni topish o'yinlari, sanimoqlar, aytishuvlar, savol javoblar, o'ylab toplar, xotirani tiklashlar, chamalashlar va boshqalar.

7. Hayvonlar va tabiat xodisalari bilan bog'liq bolalar folklor o'yinlari.

8. Ermak bolalar folklor o'yinlari.

9. Musiqa o'yinlari.

Xalq o'yinlari, jumladan bolalar folklor o'yinlari, eng qadim vaqtlarda boshlab xalq xayoti tarzini, ma'naviy-ma'rifiy, jismoniy tayyorgarligini, estetik dunyoqarashini mujassamlashtirgan xolda shu kunimizga qadar o'sib, mazmun maqsadiga ko'ra teranlashib bizga etib kelgandir. Boshqa san'at turlaridan farqligi o'laroq o'yinlarda xalq ruxiyati, psixologiyasi, koloriti, yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan munosabatida yorqin aks etadi.

XXI asrda texnika va kompyuter har bir jabhaga, har bir inson hayotigajadal kirib bormoqda. Hozirgi davrda mehnat, o'qish va ijodiy faoliyatni texnika, kompyutersiz bajarishni tasavvur qilish qiyin. Bu esa aksariyat ko'pchilik kishilaming kam harakat qilishi yoki ortiqcha toliqishlariga (charchashlariga) sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston sharoitida mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchilarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Aqliy mehnat qiluvchilar. ijodkorlar, nashriyotchilar, muhandislar, shifokorlar, o'qituvchilar, ko'lpayuterda ishlovchilar.

2. O'tirib-turib ishlovchilar. yigiruvchilar, tikuvchilar, to'qimachilar, avtoullov haydovchilar va h.k.

3. Og'ir jismoniy mehnat qiluvchilar. quruvchilar (uy-joy, yo'l va h.k.), dala mehnatkashlari, zavod-fabrika ishchilari, cho'ponlar va h.k.

Ta'kidlash lozimki, mazkur guruhdagi mehnatkash va xizmatchilarning ish faoliyatlari, harakatlarida ham har xil sharoitlar mavjud bo'lishi mumkin. Umuman olganda, har bir mehnatkash, ijodkor, olim, rahbarxodimlar o'zlarining harakatchanligini ongli va ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan bilishlari lozim bo'ladi.

Bu esa mehnat samaradorligini oshirish, sog'lom - tetik bo'lib yurish, aqliy va jismoniy jihatdan barkamollikka erishishga sabab bo'ladi. Bunda jismoniy mashqlar, turli xil harakatlarni o'zida mujassamlashtirgan harakatli o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, har bir kasb-hunar egasi, eng avvalo, salomatligi, yashash sharoiti, bo'sh vaqtini hisobga olgan holda mashqlar, o'yinlar bilan shug'ullanish tartibini (rejimini) aniq belgilashi, unga astoydil amal qilishi kerak bo'ladi.

Bu jarayonlarni ijro etish uchun quyidagi tartib (rejim)lardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Ertalabki gimnastika va o'ziga mos, ma'qul o'yinlar bilan shug'ullanish.

2. Mehnat jarayonida (har 2—3 soatda 5—10 daqiqa) va ishdan keyingi bo'sh vaqtda (uy sharoiti, yaqin atrofdagi maydonlar, trenajyorlar va h.k.) istagan mashqlar, o'yinlar bilan shug'ullanish.

Uy, turmush va mehnat sharoiti hamda kasb-hunar turlari bo'yicha milliy harakatli o'yinlardan foydalanishda quyidagilarga e'tibor berish ma'qul bo'ladi:

— yurish va yugurishda qo'l, gavda harakatlari hamda bir oyoqlab, qo'sh oyoqlab hakkalash, sakrash;

— daraxt yoki maxsus moslamalarda osilish, tortilish, oshib tushish;

— xiyobonlar, soya-salqin joylarda sayr qilish, 10—15 qadamlab chuqur nafas olish va nafas chiqarish;

— hamkasblar, tengqur do'stlar va oila a'zolari bilan to'p o'yinlarini bajarish, "Qo'l tekizish" (turtish), "Uchinchi ortiqcha" "Qarmoq", "Qopqon", "Mushuk va sichqon" kabi o'yinlarni o'ynash;

— mashg'ulotdan keyin yuvinish, yozgi paytlarda cho'milish (havza yoki vannada).

O'tirib-turib mehnat qiluvchilarga ham yuqoridagi tadbirlar mos keladi. Shuningdek, o'zlari yoqtirgan mashqlar, sport turlari elementlari va harakatli o'yinlardan foydalanish, eng muhimi esa sog'lomlashtiruvchi markazlarga (trenajyor zallariga) qatnash maqsadga muvofiqdir.

Qurilishlar, zavod-fabrika mehnatkashlari:

— ertalabki gimnastika, yengil harakatli o'yinlar;

— mehnat jarayonida 5—10 daqiqa davolida yengil mashqlar, o'tirgan holda bilak kuchini sinash bahslari, qisqa sayrlar, yoz faslida cho'milish (havza yoki dushda);

— do'lino, narda, karta, shaxmat-shashka o'yinlari;

— yelka urishtirish, "Eshak mindi", "Turtish" kabi o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlari mumkin.

Dala mehnatkashlari (paxta, don ekinlari, polizlar, o't o'rishda mashg'ul bo'lganlar, chorvadorlar va h.k.) sharoit va imkoniyatlari, salomatlik, yosh va kayfiyatlariga qarab (xohish, istak) quyidagi o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlari mumkin:

ayollar va qizlar:

— "Orqang kuydi", "To'qqiz tosh", "Qo'limdagini top", "Topishmoqlar", "Uchinchi ortiqcha", "Arg'amchida sakrash" (skakalka) va boshqa o'yinlar;

- ariq, kanal, hovuzlarda cho‘milish, kim o‘zarga suzish va shu kabi suv o‘yinlari;
- soya-salqin joylarda yotib dam olib, topishmoqli qo‘shiqlar aytish va h.k. erkaklar va o‘spirin yigitlar:
- voleybol, futbol o‘yinlarining elementlarini o‘ynash;
- bilak kuchini sinash, yelka urishtirish, tortishmachoq o‘yinlari;
- ariq, kanal, hovuzlarda to‘p otib o‘ynash;
- eshak, ot, tuyalarni choptirish, ulaming ustida ag‘darish o‘yinlari;
- xo‘roz, qo‘chqor, kaklik, bedana urishtirish o‘yinlari; qo‘lga o‘rgatilgan qirg‘iy (lochin), burgut, zag‘cha va boshqa qushlar bilan ov qilishni o‘rganish, ov qilish;
- daryo, ariq, zovurlarda baliq tutish.

Xulosa tariqasida yakunlash mumkinki, barcha turdagi mehnat lamyonlarida qo‘llaniladigan jismoniy mashqlar, harakatli o‘yinlarning turlari va sonlari beqiyos ko‘pdir. Ularni bilish va ijtimoiy (turmush hamda mehnat sharoitlarda qo‘llay bilish har bir insonning hayotiga singib ketishi kerak.

Harakatli o‘yinlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida pedagog, jamoat arboblari va olimlarning fikrlari

Hozirgi paytda sport va harakatli o‘yinlarning asosiy vazifasi o‘z mazmuni va metodikasi bilan bolalarni jamiyatimiz talablariga muvofiq ravishda tarbiyalashni ta‘minlash, ularda axloqiy, irodalilik imkoniyatlarini rivojlantirish, ijodkor va bunyodkorlarga xos bilim, ko‘nikma hamda malakalarni, o‘quvchilarga xos xarakterli xususiyatlarni sifatlarini shakllantirishdan iboratdir.

Qadimiy tarbiya sistemasida o‘yinlardan shaxsan shakllantirish vositasi sifatida keng foydalanilgan. Muqaddam pedagogik fikr namoyondalari o‘yinining tarbiyaviy ahamiyatini g‘oyat ziyraklik bilan fahmlashgan. Ular har qanday vaziyatga nisbatan o‘yin vaqtida bolalarning xulq-atvorlarini bilib olish, ularning salbiy va ijobiy sifatlarini osonroq aniqlash, noo‘rin xarakatlarni bartaraf etishning yaxshiroq choralarini qo‘llash mumkin deb hisoblashgan. Shuning uchun o‘sha davrlardayoq bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, ularga mos o‘yinlarni tanlash masalasi qo‘yilgan. Bolani yoshiga muvofiq ishlar va o‘yinlar bilan mashg‘ul qilish zarur deya topilgan. Pedagoglar zimmasiga ana shunday o‘yinlarni tanlash vazifasi yuklangan.

Yunon faylasufi Platon fanlarni o‘yinlar yordamida o‘rganishni tavsiya etgan. O‘yinda bolalar o‘z qobiliyatlarini yaxshiroq namoyon etadi, deb hisoblagan. Shuningdek Platon: «Odamlarga yoqimli fanlarni zo‘rlab emas, balki o‘yinlar orqali o‘qitib, ana shunda kimning nimaga moyilligini yaxshiroq ko‘rsan», deya ta‘kidlaydi.

Qadimgi faylasuflardan Aristotel ham bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun o‘yinlardan foydalanish zarurligini, o‘yinlar dilxushlikdan iborat bo‘lib, xordiq chiqarishga yordam berishini uqtirgan.

O‘rta asrlar pedagoglari bolalarni jismoniy kamol toptirish uchun katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatganlar – jismoniy tarbiya metodikasini ishlab chiqib, unda o‘yinlarga katta o‘rin berganlar. Feodal tarbiyasining maqsadi zadogonlar oilasidagilarga otda yurishni, suzishni qilichbozlikni, shaxmat o‘ynashni, nayza va qalqondan foydalana

olishni o'rgatishdan iborat bo'lgan. Oddiy xalqning xizmati esa feodalning farovonligi uchun mehnat qilish edi.

G.V.Plexanov ibtidoiy o'yinlar va jismoniy mashqlar biologik omillardan emas, balki odamlarning mehnat faoliyatidan kelib chiqqanligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Ayrim kishi hayotida o'yin mehnatdan oldin paydo bo'lsa ham, umuman, jamiyatda esa u faqat mehnatni aks ettiradi. Ya'ni G.V.Plexanovning tabiri bilan aytganda, «O'yin – mehnat farzandi» sifatida vujudga kelgan. Biroq G.V.Plexanov o'yin haqidagi masalani ko'rib chiqishda anglashilmovchilikka yo'l qo'ygan. U hayvonlarning harakatidagi zoologik moslashish va o'yin orasidagi tubdan farqlanishning mohiyatini aniqlashdan chetlab o'tdi.

E.A.Pokrovskiy o'ning maxsus kitobi («Detskie igrы, преимущественно russkie»)da o'yinlarni bolalarni jismoniy tarbiya amaliyotida keng qo'llash to'g'risida fikr bildiradi.

Va harakatli o'yinlarni o'rganish, ishtirokchilarning o'zaro munosabati va xulqi o'yin tanlashda uni ta'limiy vazifalariga mos kelishini, shuningdek, o'yinda pedagog bosh rolni o'ynashi lozimligini ko'rsatib o'tadi.

Shu bilan birga P.F.Lesgaft harakatli o'yinlarning vazifasi va rolini aniqlab, asosiy uslubiy ko'rsatmalarni keltiradi, o'yin materiallarini ikkita guruhga bo'ladi. Bular 1-guruh oddiy o'yinlar, 2-guruh murakkab o'yinlardir.

P.F.Lesgaft o'zining jismoniy mashqlar sistemasida o'yinlarni jismoniy tarbiya vositasi sifatida ifodalaydi. O'yin yordamida bola hayotga tayyorlanishni aytadi. P.F.Lesgaftning harakatli o'yinlarni o'tkazish uchun qo'ygan talablari hozirgi paytgacha o'z kuchini yoki ahamiyatini yo'qotgani yo'q, chunki u har bir o'yin oldiga aniq maqsadlar qo'yishi, o'tkazilayotgan o'yinlar qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o'yin bilan shug'ullanuvchilarga ijobiy emotsional ta'sir ko'rsatishi lozimligini, o'yinlarni sistemali tarzda va muntazam ravishda o'tkazish, qatnashuvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirishga harakat qilish zarurligini uqtirgan edi.

O'yin pedagogik omil bo'lishi uchun unga pedagogik vazifa ongli va maqsadga muvofiq ravishda bog'lanishi, undan tarbiyaviy maqsad hamda vazifalarni hal qilish uchun foydalanilishi shart. Sport va harakatli o'yinlarga xos xususiyatlarning boyligi ham ularda xilma-xil tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

S.A.Shminov o'yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ifodalab shunday yozgan edi: «O'yin go'yo soyadan, bola bilan birga tug'ilgan, uning hamrohi. Ishonchli do'stiga aylangan. Lekin biz uni uzoq yil davom etishi uchun yaxshi deb hisoblaymiz. O'yin katta, ba'zan ko'z ilg'amas tarbiyaviy rezervlari, g'oyat keng pedagogik imkoniyatlari tufayli insonlar e'tiborini qozonadi».

Sport va harakatli o'yinlardan foydalanish muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'yin bolaning o'z faoliyati ekanini, undagi tashabbuskorlikni va mustaqillikni saqlash hamda rag'batlantirish zarurligini hisobga olish kerak.

Milliy va harakatli o'yinlar tarbiya jarayonida faoliyatning bir turi sifatida namoyon bo'ladi, binobarin, ular ijtimoiy bo'lib, mehnat va o'qish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek va harakatli o'yinlarning ana shu eng muhim xususiyatlari ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish ehtiyojini tug'diradi.

Sport va harakatli o'yinlarning tarbiyaviy jihati haqida gap borar ekan, shuni alohida takidlash lozimki, ular eng avvalo bolalarda o'z mahallasiga, qishlog'iga, shahriga, tabiatga, mamlakatimizda yashovchi barcha xalqlarga muhabbat uyg'otadi, hurmat va ehtirom xislarini, sport g'ururni tarbiyalaydi. Eng muhimi, o'zbek xalqining sport madaniyatiga, o'tmishiga va hozirgi turmushidagi, sport an'analari hamda qadriyatlariga muhabbat uyg'otadi.

Shuningdek, o'quvchilarni xalollikka, sahovatlilikka o'rgatadi, kattalarning tajribasini bolalar va yoshlarga o'tkazishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. O'g'il va qizlarda mehnatga ongli munosabatni shakllantiradi. Ularning kuchli, chaqqon, epchil, chidamlilik, serharakat, ziyrak, topqir, botir, jasur, o'zaro hamkor bo'lishlariga yordam beradi.

A.S.Makarenkoning o'g'il va qiz bolaning shaxsiy muvaffaqiyati bilangina emas, balki, xususan o'z komandasi yoki tashkilotining muvaffaqiyatlari bilan ham faxrlanish ruhida tarbiyalash zarurligi haqida aytgan gaplarni hech qachon unutmaslik kerak. Shuningdek, bo'allarda har qanday maqtanchoqlikni bartaraf etish, raqib kuchiga hurmat- e'tiborni tarbiyalash, ularga uyushqoqlikning, mashq qilishning va komandada intizom bo'lishining ahamiyatini tushuntirish zarur. Nihoyat, bolalarning o'z muvaffaqiyatlari va mag'lubiyatlariga jiddiy munosabatda bo'lishiga erishish kerak.

O'quvchilar o'yinni yaxshilab o'zlashtirib olishlari uchun uni bir necha marta qaytarish, bunda ular o'yindan qanchalik mamnun bo'lsalar, uni shunchalik puxta eslab qolishlarini unutmaslik kerak.

Sport va harakatli o'yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan biri shuki, ular bolalarda do'stlik. Insonparvarlik, baynalminalchilik, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va hurmat kabi ma'naviy-siyosiy tuyg'ularni shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Harakatli o'yinlar pedagogik ta'rifining funktsional asosi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Bolalarni o'ziga xos o'yin faoliyatida yoshiga qarab rivojlanishi, tarbiyalash va o'rgatishning turli bosqichlarida uni umumiy va alohida aniqlashga yordam berish;
2. Bolalarning har tomonlama jismoniy rivojlanishiga o'qituvchi tomonidan harakatli o'yinlarning ahamiyatini ochib berish; aynan harakatli o'yinlarni pedagogik ta'rifini maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyotining alohida savollarini o'rganishda muhim mezon hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ushbu pedagogik ta'rif ma'lumotlari o'quvchilar bilan shug'ullanish va bolalarni harakatli o'yinlarda tashabbuskorligini to'g'ri tanqidiy baholash uchun muhim bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

O'yinlarning harakat mazmuni turlicha ko'rinishga ega. Uni organizmning funktsiyasiga va sistemalariga har tomonlama ta'sir etishi, shug'ullanuvchilarning



chiniqtirish va salomatligini mustahkamlash, jismoniy rivojlanish uchun esa o'yindan ochiq havoda foydalanish kabi zarur holatlar barchaga barobar imkon tug'diradi.

O'yinda harakatlanishni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari gigienik nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga molik. Harakatli o'yinlar hayot uchun muhim bo'lgan sifat va samara malakalarini mustahkamlaydi hamda bola organizmining kompleks rivojlanishi uchun alohida imkoniyatlar yaratib beradi. Qatnashchilarning o'yinchilarni mustaqil ravishda tashabbuskorligiga nisbatan va o'yin holatidagi o'zgarishlar sharoitiga ko'ra o'ziga xos bog'lam va vositalar bilan birga qo'shib olib borish harakatlari bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi.

Bir qarashda harakatli o'yin ishtirokchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini namoyon etuvchi vosita bo'lishi mumkin. Ma'lumki, o'yin sharoitining o'zgaruvchanligi, unda g'alaba uchun kurashishda turli sharoitning to'satdan yuzaga kelishi, to'g'ri harakat va qarorni talab qilish o'yin qatnashchilarining muhim imkoniyati hisoblanadi. Harakat ishtirokchilarning malakalarini turli bog'lanishda va birga qo'shib olib borishda qo'llashga yo'naltiradi. Shunday qilib, nazarda tutilgan harakat malakalarini istiqbolda takomillashtirish, ma'lumot olish va ko'proq o'yin harakatida murakkab usullarni mustahkamlash uchun ushbu o'yindagi to'siqni, qiyinchiliklarni engib o'tish ishtirokchilar uchun navbatdagi me'yoriy vazifalarni belgilaydi: Imkoniyat yaratib beriladi.

Harakatli o'yin ongli faoliyat hisoblanadi. O'yinlar bilan shug'ullanish, o'yin qatnashchilarining yangilarini his qilish, tasavvur etishlari bilan bir paytda ularning tushunchasini boyitadi. Shu bilan birga harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'z navbatida har kungi amaliy faoliyatida ahamiyatga ega, shuningdek gimnastika, sport va turizm ham.

Harakatning, tarkibi (mavzu, mazmuni) harakatli o'yinning g'oyasi shuning uchun muhimki, unda ishtirokchilarga hayotda amalga oshadigan holatlar uchun maksimal harakat shakli haqida to'g'ri tushuncha bilan jamiyatda mavjud bo'lgan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni haqidagi tushunishga yoki bilishga yordam beradi.

O'yinda turgan joyini aniqlash elementlari bilan va yurish xatidagi malakalarni qo'llash, umumta'lim xarakteridagi ayrim bilimlarni amaliyotda mustahkamlashga imkon beradi (matematika, geografiya, tabiatshunoslik va boshqa fanlar). Shunday qilib, harakatli o'yinlar shug'ullanuvchilarning aqliy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq bunday ta'sir etishni haddan tashqari baholash mumkin emas. Modomiki eng avvalo barcha harakatli o'yinlar o'zining xususiyatiga ko'ra shaxsan jismoniy tarbiya vazifani hal etishga yo'naltiriladi.

Ma'naviy va ma'rifiy g'oyalarning yo'naltirilishini ta'minlash sharoitida jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli o'yinlar shug'ullanuvchilarning axloq sifatlarini va xarakterining ijobiy tomonlarini shakllantirishga yordam beriishi mumkin.

Harakatli o'yinlarning mazmunan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi uni jonli va qiziqarli o'tkazishga imkon beradi. Masalan, o'yinga diqqat e'tiborni jalb qilishdagi katta ahamiyati. O'yin qatnashchilari tomonidan unga qiziqishning uyg'otilishi

maqsadga erishishdagi eng yaxshi yo'l hisoblanadi. Mazkur jarayon murakkablashadigan bo'lsa, hatto o'yin jarayonida ham engish zarur. Shularni hisobga olinishi kerakki, agar o'yinda natijaga engilgina erishilsa, bunday harakatli o'yin qatnashchilarning uzoq vaqt qiziqqanligini ko'rsatmaydi. Hatto natijaga erishish mumkinligi ayon bo'lsada, bu muayyan ma'lum darajadagi kuchni talab qiladiki, oqibatda vazifani ijobiy hal etish bilan bog'liq bo'ladi. Bunga o'xshash harakatli o'yinlar qiziqarli va o'ziga jalb qila oladi. O'yinning qiziqarli mazmuni o'yin qatnashchilarini mehnat qilishga undashi mumkin. Chunki ular u yoki bu usullarni bo'shashtirmasdan faol takror-takror bajarishlari asnosida bardoshini va jismoniy qobiliyatini amalda namoyon qiladi.

Jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli o'yinni musobaqalashishga oid xarakteri shuningdek maqsadga erishish uchun ma'lum kuchni sarflashda, qat'iyatlilik, mardlik, sabot-matonat ko'rsatishni namoyon qilishda ishtirokchilarni faollikka qiziqtirishi mumkin. O'yin harakatining musobaqalashishga oid xarakteri raqib tomonlarni ajratib yubormasligi kerak. Bu juda muhim. Chunki bellashuvning keskinligi ularni bir-biriga yanada jiplashtiradi.

Jamoa bo'lib o'ynaydigan harakatli har bir qatnashuvchi umumiy ustunligiga aniq ishonch hosil qiladi. O'zaro tushunish bilan harakat qilish esa, umumiy maqsadga erishishda va to'siqlardan oshib o'tishga yo'naltirilgan.

Jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli o'yinlarda, ixtiyoriy ravishda harakat qoidalar bilan chegaralanish ayni vaqtda o'yinga qiziqishning ortishiga shug'ullanuvchilarda ongli intizomni tarbiyalashga yordam beradi.

#### Xulosa

Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi yosh avlod qo'lida ekan, biz ularning tarbiyasi va ta'limiga birdek javobgarmiz. Bas shunday ekan ularga ajdodlarimiz qoldirgan buyuk me'rosni ongi va shuuriga singdirish bizning ma'suliyatli vazifamiz hisoblanadi.